



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ZAMONAVIY HARBIY MOJAROLARDA RADIATSION, KIMYOVIY XAVFLI OBYEKTlarda AVARIYA OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA RKB MUHOFAZA BO‘LINMALARINI QO‘LLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

k.f.n., professor, QKX Ziyadullayev Abdukaxxar Shamsiyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
QK BShF Jangovar ta‘minot kafedrası professori

dotsent, QKX Suyarov Zayniddin Xolbutayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
QK BShF Jangovar ta‘minot kafedrası dorsenti

Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi, tel. +99897-343 09 62

Ushbu maqolada zamonaviy harbiy mojarolarda radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etishda RKB muhofaza bo‘linmalarini qo‘llashdagi muammolar va ularning yechimlariga oid savollar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qurolli to‘qnashuv, radiatsion va kimyoviy xavfli obyektlar, avariya oqibatlarini bartaraf etish, avariya o‘chog‘i, navbatchi bo‘linma, ilg‘or otryad, kuchli ta‘sirlovchi zaharli moddalar, radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza bo‘linmalari, radiatsion, kimyoviy vaziyatni aniqlash va baholash, radiatsion va kimyoviy nazorat, radiatsion, kimyoviy nazorat, zaharlangan havo bulutining chegaralari, suv pardasi, texnologik qurilmalarini samarali qo‘llash, avariya oqibatlarini ogohlantirish tizimi, radiatsion, kimyoviy vaziyatni aniqlash tizimi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ РХБ ЗАЩИТЫ В ХОДЕ ЛИКВИДАЦИИ ПОСЛЕДСТВИЙ АВАРИЙ НА РАДИАЦИОННО, ХИМИЧЕСКИ ОПАСНЫХ ОБЪЕКТАХ В СОВРЕМЕННЫХ ВООРУЖЁННЫХ КОНФЛИКТАХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

к.х.н., профессор, служащий ВС Зиядуллаев Абдукаххар Шамсиевич,
профессор кафедры Боевого обеспечения факультета главного штаба ВС
Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан

доцент, служащий ВС Суяров Зайниддин Холбутаевич, доцент
кафедры Боевого обеспечения факультета главного штаба ВС
Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан
Ташкент, Республика Узбекистан, тел.+99897-343 09 62

В статье рассматриваются проблемы применения подразделений радиационной, химической и биологической защиты, в ходе ликвидации последствий аварий на радиационно, химически опасных объектах в современных вооружённых конфликтах.

Ключевые слова: вооружённый конфликт, радиационно и химические опасные объекты, ликвидация последствий аварий, очаги аварий, дежурные подразделения, авангард, сильнодействующие ядовитые вещества, подразделения радиационной, химической и биологической защиты, выявления и оценки радиационной, химической обстановки, радиационный и химический контроль, границы зоны заражения, водяной завес, эффективное применения технологического оборудования, система



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

poisoned air cloud, water curtain, effective use of technological devices, emergency warning system, radiation and chemical situation detection system.

Hozirgi zamonaviy siyosiy vaziyat global harbiy qarama-qarshilik keskinligining pasayishi bilan tavsiflanadi, biroq harbiy keskinlik, asosan mintaqa miqyosida millatlararo nizolarning keskinlashuvi va terroristik guruhlarining faollashuvi bilan saqlanib qolmoqda.

Qurolli Kuchlar harbiy operatsiyalarini strategik (tezkor, jangovar) qo'llab-quvvatlashning bir turi sifatida radiatsion, kimyoviy va biologik muhofazani rivojlantirish, shunga mos ravishda RKB muhofaza qo'shinlari, ularni jangovar qo'llash shakllari va usullarini takomillashtirish ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqish (keyingi matnlarda OQQ), shuningdek undan harbiy va terroristik maqsadlarda foydalanish tahdidlari bilan bevosita bog'liq.

Ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlariga ko'ra, Ukraina hududida 11 ta biolaboratoriya (Lvov, Ternopol, Ivano-Frankovsk, Vinnitsa, Kiev, Xerson, Xarkov, Dnepr, Nikolaev shaharlarida), kimyo sanoati korxonalarini va 4 ta atom elektr stansiyalari (Zaporoje, Rovensk, Xmelniskiy shaharlari va Janubiy Ukrainada) mavjud (Chernobil atom elektr stansiyasi konservatsiya qilingan).

Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining Ukrainani demilitarizatsiya va denatsifikatsiya qilish bo'yicha davom etayotgan qurolli mojarosi shuni ko'rsatadiki, maxsus harbiy operatsiya o'tkazish jarayonida atom elektr stansiyasi, kimyo sanoati korxonalarini va biologik laboratoriyalardagi halokatlar natijasida radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat o'zgarishi mumkin.

Bugungi kunda nanotexnologiyalar, gipertezlik, yuqori energiyali moddalarni sintez qilish, yangi materiallar yaratish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq yutuqlarni keng joriy etish uchun asoslar yaratildi. Hozirgi urushlarda yangi qurol-aslahalarining paydo bo'lishi va aerokosmik vositalardan



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

foydalanish kelajakdagi urushlar shakliga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi asosiy omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, keng ko'lamli urush davomida yoki mintaqaviy mojaralarda OQQdan foydalanish xavfi saqlanib qolayotganini hisobga olgan holda qo'shinlarning RKB muhofaza vazifalarini bajarishga doimo tayyor bo'lish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Tahlil natijalarini hisobga olib, zamonaviy harbiy mojaralarda radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat quyidagi holatlarda yuzaga kelishi mumkin:

noqonuniy qurollangan to'da (terrorchi guruh)lar tomonidan OQQlarini qo'llash ehtimoli borligi;

qurolli to'qnashuvlarda mag'lubiyatga uchrayotgan davlat yoki terrorchi tashkilot tomonidan ommaviy qirg'in qurollari qo'llanishi;

radiatsion va kimyoviy xavfli obyektlarda diversiya (terakt)lar o'tkazilishi yoki bu obyektlarni o'ta aniq nishonga oluvchi vositalar bilan vayron etilishi oqibatida radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat yuzaga kelishini inobatga olish mumkin. Radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarda halokatlar texnologik tizim va jihozlarning nosozligi yoki loyihalashtirish va qurilish ishlaridagi kamchiliklar tufayli sodir bo'lishi mumkin. Urush davrida esa ushbu obyektlar diversiya yoki jangovar harakatlar natijasida vayron etilishi birinchi o'ringa chiqadi.

Radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarini ekspluatatsiya qilish jarayonida halokatlar sodir bo'lishi va natijada radiofaol va kuchli ta'sirlovchi zaharli moddalarning tabiatga tarqalishi oqibatida ko'p miqdorda zarar keltirishi va aholi o'rtasida falokatlar sodir bo'lishi mumkin va joylar radiofaol va kuchli ta'sirlovchi zaharli moddalar bilan zararlanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlar bilan bog'liq bo'lgan yirik halokatlar sodir bo'lishi natijasida atrof muhitga ko'p miqdorda radiofaol va kuchli ta'sirlovchi zaharli moddalar tarqalishi kuzatilgan.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Jangovar va terroristik harakatlar natijasida radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarda halokat holatlari sodir bo‘lishi oqibatida qo‘shinlar va aholi o‘rtasida ko‘p miqdorda talafotlar yuzaga kelishi va qo‘shinlar jangovar vazifalarini o‘z vaqtida bajarilishiga imkoniyat bo‘lmasligi mumkin.

Radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlaridagi keng miqyosli halokatlarni bartaraf etish uchun RKB muhofaza qo‘shinlari gruppировkasi tashkil etiladi va ular harakatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun mo‘ljallangan.

Radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etishda RKB muhofaza qo‘shinlari bo‘linmalarini qo‘llashning o‘ziga xosligi

Radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etish tajribalari shuni ko‘rsatadiki, favqulodda vaziyatlarda holatni normallashtirish uchun ko‘p miqdorda odamlar va moddiy vositalarning zaxirasi hamda qo‘shin tuzilmalari jalb etilishi talab etiladi.

Avariya oqibatlarini bartaraf etish tadbirlari tegishli vazirliklar va tashkilotlar tomonidan hamkorlikda bajariladi. Shu jumladan, halokat oqibatlarini bartaraf etishga harbiy okruglardagi, mudofaa vazirligiga qarashli quruqlikdagi qo‘shinlarning RKB muhofaza qo‘shinlari, muhandislik qo‘shinlari, harbiy havo kuchlari, fuqaro muhofazasi va front orti ta‘minoti tashkilotlari safarbar qilinadi. Radiatsion, kimyoviy xavfli bo‘lgan obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etish uchun avariya-qutqaruv bo‘linmalari va qidiruv-qutqaruv otryadlari, favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va harakatlanish tizimi (FVV), viloyat va tumanlar kuch vositalari hamda doimiy shay harbiy qismlarning RKB muhofaza bo‘linmalari mavjud.

RKB muhofaza bo‘linmalari radiatsion, kimyoviy xavfli bo‘lgan obyektlarda halokat holati sodir bo‘lganda ushbu obyektlarni keyinchalik ehtimoliy ishlashini ta‘minlash, halokat rayonlari yaqinidagi aholini, sanoat korxonalarini va qo‘shinlarni hayot faoliyatini normal holatga keltirishda ishtirok etadi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ushbu maqsadlarga Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalari bilan hamkorlikda quyidagi to‘rt guruhdagi vazifalarni bajarish yo‘li bilan erishiladi:

1-guruh vazifasi - radiatsion, kimyoviy xavfli obyektida talafotlar ko‘lamini va oqibatlarini aniqlash hamda baholash;

2-guruh vazifasi - halokat o‘chog‘ida lokalizatsiya va ko‘lamini tarqalishini oldini olishga qatnashish;

3-guruh vazifasi – degazatsiya, dezaktivatsiya tadbirlarini amalga oshirish;

4-guruh vazifasi – radioaktiv, kuchli ta’sirlovchi zaharli moddalarni (KTZM) utilizatsiyalash.

Har bir guruh vazifasi bir qator ayrim vazifalarni o‘ziga biriktiradi.

Birinchi guruh vazifalari quyidagilardan iborat:

avariya sodir bo‘lgan hududidagi radiatsion, kimyoviy vaziyatni aniqlash va baholash;

radioaktiv va kuchli ta’sirlovchi zaharli moddalar bilan zararlangan zonalarini aniqlash;

aholi yashash punktlarida va magistral avtomobil yo‘llarida radiatsion, kimyoviy razvedka olib borish;

halokat bo‘lgan obyekt hududida, aholi yashash punktlarida va asosiy magistral avtomobil yo‘llarida radiatsion, kimyoviy vaziyatni o‘zgarishini nazorat qilish;

shaxsiy tarkibni, texnika va moddiy vositalarni radiatsion, kimyoviy nazoratini olib borish.

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarishda RKB muhofaza bo‘linmalariga chang ko‘tariladigan maydonlarni, yo‘llarni maxsus moddalar bilan ishlov o‘tkazishdan iborat.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Uchinchi guruh vazifalariga quyidagilar kiradi:

radiatsion, kimyoviy xavfli bo‘lgan obyektlar rayonlarida va inshootlarini degazatsiya va dezaktivatsiya tadbirlarini amalga oshirish;
aholi yashash punktlarida va magistral avtomobil yo‘llarini hamda texnikalarni degazatsiya, dezaktivatsiya qilish.

To‘rtinchi guruh vazifalariga quyidagilar kiradi:

radiofaol moddalarni ko‘mish uchun mo‘ljallangan punktlarni, tindirgichlar, tabiiy ravishda dezaktivatsiya maydonlarini jihozlash;
radiofaol moddalar bilan zararlangan tuproqni, qurilish materiallarini, texnikalarni agregatlarini va vositalarni yig‘ish, ortish va ularni ko‘mish;
radiofaol moddalar bilan zararlangan reaktorni tarkibiy elementlarini, issiqlik chiqaruvchi elementlarni yig‘ish va ularni ko‘mish.

Barcha vazifalar turli kuch va vositalar yordamida odatda fuqaro muhofazasi bo‘linmalari, muxandislik qo‘shinlari, harbiy havo kuchlari va RKB muhofaza bo‘linmalari tomonidan majmuaviy tartibda bajariladi.

Ushbu vazifalarni bajarishda RKBM bo‘linmalari **markazlash-tirilgan yoki markazlashmagan** tartibda qo‘llaniladi.

Halokat oqibatlarini bartaraf etish uchun mo‘ljallangan turli xil kuch va vositalarni umumiy boshqarish, mudofaa vazirligi, FVV tezkor guruhiga, alohida vaziyatlarda esa davlat komissiyasiga yuklatiladi. Ushbu hollarda RKB muhofaza va muhandislik-texnik bo‘linmalari mo‘ljallanishi bo‘yicha o‘ziga xos bo‘lgan vazifalarni bajarishi lozim.

Halokat oqibatlarini bartaraf etishda qatnashayotgan RKB muhofaza bo‘linmalariga rahbarlik mudofaa vazirligi tezkor guruhi yoki harbiy okrugning operativ guruhi zimmasiga yuklatiladi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Halokatning ko‘lami va turiga ko‘ra oqibatlarini bartaraf etuvchi bo‘linmalar o‘z vazifalarini to‘liq tarkibda yoki alohida qismlar tarkibida bajarishi mumkin. Ushbu bo‘linmalar favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi sababli shtat tuzilmasi bo‘yicha shaxsiy tarkib va barcha vositalar bilan ta‘minlanishi zarur.

Halokat oqibatlarini bartaraf etish uchun mo‘ljallangan bo‘linmalarni halokat hududiga zudlik bilan chiqishini ta‘minlash maqsadida bo‘linmalarda jangovar navbatchilik tashkil etilishi mumkin. Navbatchi bo‘linma tarkibiga odatda RKB razvedka seksiyasi, maxsus ishlov berish guruhi, sanitar va transport avtomobillari kiradi.

Navbatchi bo‘linma halokat to‘g‘risida signal olganidan keyin belgilangan vaqtda harakatlanishi va hududga yetib kelib vaziyatni aniqlashi zarur. Jangovar shay holatga keltirish va halokat oqibatlarini bartaraf etish boshlanishi bilan navbatchi bo‘linma ilg‘or otryadga aylanadi.

Ilg‘or otryad halokat hududiga yetib kelishi bilan birinchi navbatdagi vazifalarni bajarishga kirishadi, halokat o‘chog‘i hududida radiatsion vaziyatni aniqlaydi. Bundan tashqari, otryad komandiri asosiy kuchlarni halokat hududiga kiritish, ularni joylashtirish bo‘yicha taklifini tayyorlaydi hamda halokat hududidagi boshqaruv organlari bilan hamkorlikni tashkillashtiradi.

Halokat holatining boshlanish davrida asosiy e‘tibor radiatsion, kimyoviy xavfli bo‘lgan obyektlar hududida radiatsion, kimyoviy razvedkani olib borishga qaratiladi, binolardagi radioaktiv, kuchli ta‘sirlovchi zaharli moddalarning dozasi, konsentratsiyasi va tarqalish zonasi aniqlanadi. Ushbu vaziyatda RKB razvedka bo‘linmasi seksiyalar tarkibida harakatlanadi, bunda kuch va vositalar zaxirasi yaratiladi.

Radiatsion, kimyoviy razvedka shtatdagi RKR mashinasi yordamida amalga oshiriladi, alohida vaziyatlarda piyoda dozorida razvedka o‘tkazilishi mumkin. Radiatsion, kimyoviy vaziyat to‘g‘risidagi ma‘lumotni obyektga mavjud bo‘lgan



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

stasionar aniqlash tizimidan olish imkoniyati bo'lmaganda RKB razvedka bo'linmalarining piyoda dozori obyektidagi ishlab chiqarish va ma'muriy binolarini tekshiradi.

Radiatsion xavfli bo'lgan obyektlar hududida radioaktiv moddalarning doza quvvati kuchli bo'lganligi tufayli ionlovchi nurlardan yuqori himoya koeffitsiyentiga ega bo'lgan texnikada razvedka olib borilishi maqsadga muvofiq.

Radiatsion razvedka davomida doza quvvati belgilangan miqdordan yuqori bo'lganda belgilar qo'yiladi hamda sxemada tasvirlanadi.

Avariya sodir bo'lgan obyekt hududi tashqarisida radiatsion vaziyatni aniqlashda RKB razvedka bo'linmalari to'liq tarkibda harakatlanadi.

Obyektida radiatsion, kimyoviy vaziyatni hisobga olgan holda bo'linmalarga himoya vositalarida shaxsiy tarkibni ishlash davomiyligi tartibi ishlab chiqariladi. Murakkab bo'lgan radiatsion vaziyatlarda bo'linmalar navbat bilan harakatlanishadi.

Bino va inshootlarning ichki tomoniga dezaktivatsiya o'tkazish maqsadida suyuq moddalarni qo'llash quyidagi uslublarda amalga oshiriladi: suvni yoki yuvuvchi moddalarni purkash yo'li bilan amalga oshirish; parda qoplash xususiyatiga ega bo'lgan moddalar bilan qoplash va keynchalik pardani olib tashlash (yuvish).

RKB muhofaza bo'linmalarining asosiy vazifalaridan biri - halokat oqibatlarini bartaraf etishga qatnashayotgan texnikalarni dezaktivatsiya qilishdan iborat bo'lib, ushbu vazifani bajarish uchun maxsus ishlov o'tkazish punktlari yoyiladi va ushbu punktlarda radiofaol moddalar bilan zararlangan texnikalar dezaktivatsiya qilinadi.

Maxsus ishlov o'tkazish punktida texnikalar yuvish kukunining suvdagi eritmasi yordamida tarqatish pistoleti yoki brandspoytlar qo'llagan holda dezaktivatsiya qilinadi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Muhandislik-texnik vzvodining kuch vositalari yordamida quyidagi vazifalar bajariladi: AES hududida yo‘laklar barpo etish va qulab tushgan ishlab chiqarish binolaridagi to‘siqlardan o‘tadigan joylarni tozalash.

Yerning ustki qismi buldozerlar yordamida qirqish yo‘li bilan dezaktivatsiya qilinadi, shundan keyin chang ko‘tarilishini oldini olish maqsadida suv purkaladi. Radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etishda radiatsion, kimyoviy va biologik (RKB) muhofaza qo‘shinlari bo‘linmalari tomonidan quyidagi vazifalar bajariladi: avariya o‘chog‘ida radiatsion, kimyoviy vaziyatni aniqlash va baholash, obyektlarda radiatsion, kimyoviy nazoratni amalga oshirish hamda kimyoviy zaharlanishlarni tarqalishini to‘xtatish, rayonlarni va texnikalarni dezaktivatsiya, degazatsiyalash, zaharli moddalarni shikastlangan idish (sisterna)dan zaxira idishi (sisternasi)ga o‘tkazish va shaxsiy tarkibni sanitar-gigienik yuvintirish tadbirlarida qatnashishi mumkin.

Avariya rayonidagi vazifalarni mohiyati va ko‘lamini hisobga olib RKB muhofaza qo‘shinlari bo‘linmalari guruh yoki seksiya tarkibida harakatlanishadi. Radiatsion, kimyoviy va biologik razvedka bo‘linmalari asosiy e‘tiborni avariya rayonida va unga tutashgan obyektlarda radiatsion, kimyoviy vaziyatni aniqlashga va baholashga qaratishadi.

Radiatsion, kimyoviy razvedka o‘tkaziladigan rayonlarni va maxsus ishlov ko‘lamini aniqlash va vazifani o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash maqsadida avariyaning bartaraf etuvchi bo‘linmalar oldindan obyektning maketida hamkorlik tadbirlarini amalga oshirishlari va vazifalarini bajarish variantlari rejasini ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq.

Kimyoviy razvedka vazifalarini bajarishdan avval bo‘linma komandiri obyektning batafsil chizmasini tayyorlaydi va quyidagilarni tasvirlaydi: avariyaning xususiyatlari; zaharli moddalar to‘kilgan joy va tarqalish maydonlari;



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

kimyoviy razvedka olib boriladigan rayonlar va oqibatlarini bartaraf etuvchi texnikalarning harakatlanish yo‘nalishlari.

Avariya oqibatlarini bartaraf etishga qatnashayotgan bo‘linmalarni hamda aholining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida, birinchi navbatda, radiaktiv va zaharli moddalar tarqalgan zonalarining chegaralari va tarqalish yo‘nalishlari aniqlanadi.

Radiatsion, kimyoviy razvedka dozori radioaktiv va zaharli moddalar bulutining tarqalish zonalarining chegaralarini aniqlab bo‘lgandan keyin kimyoviy kuzatuv postining vazifasini bajarishni boshlaydi va radiatsion, kimyoviy vaziyatni o‘zgarishini kuzatadi.

RKB razvedka mashinasi bora olmaydigan joylarda, kimyoviy razvedka piyoda amalga oshiriladi. Ushbu holatlarda dozorlar tarkibi radioaloqa vositasi bilan ta‘minlanishi va ular bilan doimiy ravishda ma‘lumotlar almashib turilishi zarur. Radiatsion, kimyoviy kuzatuv posti yaqinida zaharli moddalar aniqlanganda bo‘linma komandiri tezkorlik bilan vaziyat to‘g‘risida ma‘lumot beradi, mahalliy davlat organlarini ogohlantiradi va ular bilan hamkorlikni tashkillashtiradi.

Avariya oqibatlarini bartaraf etish uchun mo‘ljallangan bo‘linmalar bilan o‘tkazilgan maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, avariya rayonida doimiy ravishda radiatsion, kimyoviy vaziyatni aniqlash va baholash maqsadida avariya boshlang‘ich davrida obyektning tashqi chegarasida radiatsion, kimyoviy kuzatuv postlari o‘rnatilishi hamda zaharlangan rayonga transport vositalarini kirishini ta‘qiqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Obyektida kimyoviy nazorat kimyoviy razvedka asboblari yordamida hamda obyektning kimyoviy laboratoriyasida amalga oshiriladi. Dala sharoitlarida zaharli moddalarni namunalarda miqdorini aniqlash imkoniyati bo‘lmaganligi tufayli ushbu tadbir kimyoviy sanoat korxonalarining laboratoriyasi, Mudofaa



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yoki Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tasarrufidagi laboratoriyalarda amalga oshiriladi.

RKB muhofaza qo‘shinlari bo‘linmalari hamda FVV tasarrufidagi avariya qutqaruv otryadlari bilan hamkorlikda avariya o‘chog‘idagi kimyoviy zaharlanishlarni tarqalishini to‘xtatishning asosiy usullaridan biri zaharli moddalar tarqalish yo‘nalishiga suvli parda ekranlarni qo‘yish, turli ko‘pikli aralashmalarni qo‘llash, zaharli moddalarni suv bilan suyultirib, uni zaharligini kamaytirishdan iborat.

Maxsus ishlov o‘tkazish bo‘linmalari obyektidagi zaharli moddalar to‘kilgan maydonlarni degazatsiya tadbirlarini amalga oshirishadi hamda zaharli moddalarni yig‘ish va zaxira sisternalarga yoki ko‘miladigan joylarga tashish vazifalarini bajarishadi.

Texnologik qurilmalarni va sexlarni ichki qismlarini degazatsiyalash degazatsiya to‘plamlari DKV (DKV-1M) bilan jihozlangan bo‘linma tarkibiga yuklatiladi. Bevosita texnologik qurilmalarni degazatsiyasini qo‘shimcha berilgan shaxsiy tarkib yoki obyektning xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer maydoni, uchastka va hududlarni degazatsiyalash bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda zaharlanish manbalari bo‘lgan joylar va shaxsiy tarkib harakatlanish yo‘nalishlarida degazatsiya tadbirlari amalga oshirilishi zarur. Ushbu vazifalarni bajarishda yong‘in o‘chirish texnikalari agressiv moddalar bilan ishlash uchun mo‘ljallanmaganligini hisobga olish zarur.

Texnik vositalarini ishdan chiqishini oldini olish maqsadida ARS-14 stansiyasini zaharli moddalar bilan to‘ldirishdan oldin moddaning agressivligini kamaytirish uchun suv bilan aralastirish lozim. Zaharli moddalarni suv bilan suyultirish darajasi moddaning kimyoviy-fizikaviy xususiyatiga bog‘liq bo‘lib, bu daraja 25-30 % gacha bo‘lishi mumkin.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Zaharli moddalarning odam organizmiga va atrof-muhitga xavfliligini hisobga olib maxsus ishlov tadbirlari to'xtovsiz ravishda amalga oshirilishi va to'liq tugatilgunicha davom ettirilishi maqsadga muvofiq.

Maxsus vazifalarni to'xtovsiz bajarilishini ta'minlash maqsadida shaxsiy tarkibni almashtirish rejasi tuziladi va ushbu reja asosida tadbirlar amalga oshiriladi. Shaxsiy tarkibni almashtirish, odatda, havo to'ldirilgan ballonlarning (regenerativ patronlarni, himoya vositalarida ruxsat etilgan harakatlanish vaqti) ishlash vaqti bilan belgilanadi.

Kun davomida shaxsiy tarkib himoya vositalarida ishlash vaqti 3-4 soatdan oshmasligi kerak. Avariya oqibatlarini bartaraf etishda qatnashayotgan shaxsiy tarkibni gigienik yuvintirish front orti ta'minoti va tibbiyot bo'linmalari texnikalari yordamida amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, RKB muhofaza qo'shinlari bo'linmalarini samarali qo'llash barcha komandir va shtablar tomonidan maxsus ishlarni bajaradigan guruhlarni tayyorlash, ularni zamonaviy vositalar bilan ta'minlash, yagona g'oya asosida rejalashtirish va ularni hayotga tatbiq eta olishga uzviy bog'liqdir.

Xulosa:

Radiatsion, kimyoviy xavfli obyektlarda avariya sodir bo'lishi oqibatida atrof-muhit zaharlanishi hamda murakkab bo'lgan radiatsion, kimyoviy vaziyat yuzaga keladi, ushbu vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa, aholi zaharlanishi va atrof-muhitga katta zarar yetkazilishi mumkin.

Texnogen avariya sodir bo'lganda avariyaning bartaraf etuvchi bo'linmalar asosiy e'tiborni radiatsion, kimyoviy vaziyatni aniqlash va baholashga hamda radioaktiv va zaharli moddalarni dezaktivatsiyalash, degazatsiyalash (neytrallashtirish) tadbirlarini amalga oshirishga qaratadi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Foydalanilgan manbalar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5066 от 01.06.2017 “О мерах по коренному повышению эффективности системы предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi 26.08.2020 dagi 515-sonli qarori.
3. (http://www.volgainfo.ru/radujnye_perspektivy_himicheskoy_promyshlennosti/.<http://www.himtrade.ru/info/st10.htm>. (Murojaat sanasi 12.02.2026 y).
4. Святова Н.В., Мисбахов А.А., Кабыш Е.Г., Мустаев Р.Ш., Галеев И.Ш. Безопасность и защита человека в чрезвычайных ситуациях: Учебное пособие / – Казань. – ТГГПУ. – НС БЖД. – 2022.